



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2024 yil 4 mart

№ 1881

Xalqaro xotin-qizlar bayrami munosabati bilan bir guruh ayollarni “Sud faxriysi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlash to‘g‘risida

“O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalari, O‘zbekiston Sudyalari assotsiatsiyasi Markaziy kengashi va Sud tizimi faxriylari markazi boshqaruv kengashining 2024 yil 28 fevraldagi 2-sonli ko‘shma majlisi qaroriga muvofiq:

1. Xalqaro xotin-qizlar bayrami munosabati bilan sud tizimida yuksak obro‘-e‘tibor qozongan, sudyalik burchini benuqson, samarali va halol amalga oshirgan, jamiyatda odil sudlovga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash va yosh sudya kadrlarni yetishtirishga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan quyidagi ayollar “Sud faxriysi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlansin:

Kamalova Ra‘no Norboyevna

Imamova Muxiba Norovna

Shoymardonova Ibodat Almanovna

Ro‘ziyeva Mavjuda Akbarovna

Muydinova Toxiraxon Dadaxonovna

Akramova Djamilya Sayfiyevna

Ortiqova Mukarram Norovna.

2. “Sud faxriysi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlanganlarga ko‘krak nishoni va uning guvohnomasi tantanali vaziyatda topshirilsin.

3. Ushbu Qaror ijrosini ta‘minlash Sudyalar oliy kengashi kotibi X.Sadikov zimmasiga yuklatilsin.

4. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov

MM56770571